



UDK: 82.1

Sabura XUDAYAROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: saburaxudayarova_95@gmail.com

ToshDO'TAU dotsenti I.Azimova tadrizi asosida

KO'ZI OJIZLARDA TIL QOBILIYATINING O'ZLASHTIRILISHI VA UNING TADQIQI

Аннотация

Mazkur maqolada ko'zi ojizlarning til o'zlashtirish jarayonida so'z ma'nolarini anglash va egallash mexanizmlari psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. So'z ma'nosining kognitiv, affektiv va sensor tajribalarga bog'liqligi, shuningdek, ko'rish cheklovlari sharoitida bu jarayon qanday kechishi turli tadqiqotchilar nuqtai nazari asosida yoritiladi. So'z ma'nosini shakllantirishda eshitish, teginish va kinestetik idrokning o'rni ko'rsatib berilgan. Ko'rish imkoniyati cheklangan shaxslarning "rang", "yorug'lik", "ko'k osmon" kabi vizual tushunchalarni qanday idrok etishi ilmiy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ko'zi ojiz bolalar, til o'zlashtirish, psixolingvistika, sezgi tajribasi, semantika.

LANGUAGE ACQUISITION AND ITS RESEARCH IN THE BLIND

Annotation

This article provides a psycholinguistic analysis of the mechanisms by which visually impaired individuals acquire and understand word meanings during the language acquisition process. It explores the dependence of word meaning on cognitive, affective, and sensory experiences, as well as how this process unfolds in the context of visual limitations, based on the perspectives of various researchers. The article highlights the role of auditory, tactile, and kinesthetic perception in shaping word meaning. It uses scientific sources to explain how visually impaired individuals perceive visual concepts like "color," "light," and "blue sky."

Key words: Visually impaired children, language acquisition, psycholinguistics, sensory experience, semantics.

ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКУ И ЕГО ИССЛЕДОВАНИЕ У СЛЕПЫХ

Аннотация

В данной статье представлен психолингвистический анализ механизмов, посредством которых люди с нарушениями зрения усваивают и понимают значения слов в процессе освоения языка. В статье рассматривается зависимость значения слова от когнитивного, аффективного и сенсорного опыта, а также то, как этот процесс развивается в условиях зрительных ограничений, основываясь на точках зрения различных исследователей. В статье подчёркивается роль слухового, тактильного и кинестетического восприятия в формировании значения слова. На основе научных источников объясняется, как люди с нарушениями зрения воспринимают визуальные понятия, такие как «цвет», «свет» и «голубое небо».

Ключевые слова: Слепые дети, усвоение языка, психолингвистика, сенсорный опыт, семантика.

Kirish. Til insonning ijtimoiy va kognitiv faoliyatining ajralmas qismidir. So'z ma'nolarini o'zlashtirish jarayoni esa insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatiga va sezgi organlari orqali oladigan tajribalariga bevosita bog'liq. Ko'zi ojizlarda ushbu jarayon boshqa sezgi a'zolari, ayniqsa, eshitish, teginish va kinestetik idrok orqali amalga oshadi. Shu sababli ko'rish imkoniyati cheklangan shaxslarda tilning o'zlashtirilishi hamda so'z ma'nolarini anglash alohida psixolingvistik tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'zi ojiz shaxslarda til o'zlashtirilishi va so'z ma'nosining shakllanishida sezgi tajribalari alohida o'rin tutadi. Ular tilni eshitish orqali o'zlashtiradi. Shu sababli so'zlarning semantik to'ldirilishi ko'rish qobiliyati meyorida bo'lgan shaxslar bilan taqqoslaganda boshqacha sensor asosda amalga oshadi. Masalan, "yorug'lik", "rang", "ko'k osmon" kabi vizual tushunchalar ular uchun eshitilgan ma'lumotlar asosida tasavvur qilinadi.

A.Paivio tomonidan ishlab chiqilgan "duallik kodi nazariyasi"ga ko'ra, so'zlar vizual va verbal shaklda kodlanadi. Ko'zi ojizlarda esa vizual kanal cheklanganligi sababli so'z faqat verbal (eshituv) shaklda kodlanadi, bu esa semantik tushunchalarning shakllanishini qisman murakkablashtiradi [1].

Susan Goldin-Meadow va Barbara Landau singari olimlar o'z tadqiqotlarida ko'rish imkoniyati bo'lmasa ham, kognitiv va lingvistik rivojlanish izchil kechishini isbotlab berganlar. Ular bolalarning fazoviy tushunchalarni ham egallay olishini, bunda boshqa sezgi a'zolari, ayniqsa, teginish orqali olingan ma'lumotlar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [3]. Shu bilan birga, amerikalik tilshunoslar Lila R.Gleitman va Barbara Landau ham ko'zi ojiz bolalarda til o'zlashtirishni o'rganishda muhim hissa qo'shgan olimlardir. Ularning 1985-yilda chop etilgan "Language and Experience: Evidence from the Blind Child" asari ko'zi ojiz bolalarning til o'zlashtirish jarayonini chuqur tahlil qilgan. Ular ko'zi ojiz bolalar ko'rish bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni (masalan, "ko'rmoq", "rang") boshqa sezgi organlari orqali o'zlashtirishlarini aniqladilar. Bu tadqiqot til o'zlashtirishning sezgi organlariga bog'liq emasligini ko'rsatdi.

Ispaniyalik psixolog Miguel Pérez-Pereira ham ko'zi ojiz bolalarda til rivojlanishini o'rganishda muhim tadqiqotlar olib borgan. U 1992-yilda chop etilgan "Pragmatic functions of blind and sighted children's language: A twin case study" asarida bir juft egizakdan biri ko'zi ojiz bo'lgan holda, ularning til o'zlashtirishdagi farqlarini tahlil qilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ko'zi ojiz bola tilni o'zlashtirishda boshqacha usullarni qo'llagan, bu esa til rivojlanishining sezgi organlariga bog'liq emasligini tasdiqlaydi [4]. Amerikalik tilshunos Susan Ellis Weismer til rivojlanishi va til buzilishlari bo'yicha

tadqiqotlar olib borgan. U ko'zi o'z bolalarda til rivojlanishini o'rganishda ham ishtirok etgan. Uning tadqiqotlari ko'zi o'z bolalarda til rivojlanishining ijtimoiy va kognitiv omillarga bog'liqligini ko'rsatadi.

Psixoaanalitik Selma Fraiberg 1970-yillarda ko'zi o'z bolalarning rivojlanishini o'rganib, ularning til o'zlashtirishidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlagan. Uning tadqiqotlari ko'zi o'z bolalarda til rivojlanishining psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liqligini ko'rsatadi [6]. Yetakchi olimlardan bo'lgan Atsushi Senju va Andrew Meltzofflar ham ijtimoiy omillar ta'sirini muhim deb hisoblaganlar. Ular ko'zi o'z onalarning bolalari bilan bo'lgan muloqotini o'rganib, bu bolalarning til rivojlanishi sog'lom va rivojlanganligini aniqladilar. Ularning tadqiqotlari ko'zi o'z onalarning bolalari bilan bo'lgan muloqotining til rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi [7]. Haqiqatan ham, ushbu fikrlarga asoslanib shuni aytilish mumkinki, ota-onasi ko'zi o'z bolalarning tilni o'zlashtirishi hamda dunyoni anglashi boshqa tengdoshlariga qaraganda erta rivojlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Psixolingvistik yondashuvlar.

Ko'zi o'z shaxslarning til o'zlashtirish jarayonini psixolingvistik yondashuvlar asosida o'rganish, shuningdek, til bilan tafakkur orasidagi bog'liqlik doimiy tadqiqot mavzusidir. Ko'zi o'z o'zlarida til vositasida tasavvur hosil qilish — bu sof nutq asosidagi idrok mexanizmidir.

L.V.Vigotskiy o'zining "Nutq va tafakkur" asarida tilning rivojlanishi tafakkurni shakllantiradi, deb hisoblagan. Ko'zi o'z bolalar tilni eshitish va muhit bilan interaktiv aloqa orqali egallaydi, bu esa ularda o'ziga xos semantik tasniflar yuzaga kelishiga olib keladi [8].

J.M.Kegl va M.Marmor kabi tilshunoslar ko'zi o'z o'zlarida vizual konsepsiyalar (masalan, "ko'rmoq" fe'li) metaforik ma'noda o'zlashtirilishini ko'rsatadi. Ular bunday so'zlarning ma'no strukturasi eshituv va kontekst asosida shakllanishini ta'kidlaydi. Empirik tadqiqotlar va korrelyatsion kuzatuvlar olib borgan J.M.Kennedy o'z tadqiqotlarida ko'zi o'z bolalar ham oddiy ko'ruvchilarga o'xshash tarzda fazoviy va semantik tasnif qilishini ko'rsatgan. Bunda ular teginish orqali olgan tajribalarni asos qilib oladi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonlik olim D.Alimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko'zi o'z o'zlarining so'z boyligi, semantik tushunchalarni shakllantirish qobiliyati va muloqotga kirishish darajasi tahlil qilinib, ularning nutq rivoji alohida yondashuvni talab qilishi ko'rsatib o'tilgan [9].

Mozaffor Hossain tomonidan yozilgan "Anthony Doerning "Ko'rolmaydigan barcha nurlar" asaridagi ko'zi o'z bolaning kognitiv va lingvistik namoyishlari" nomli tadqiqot maqolasi Marie-Laurening ko'rliigi, fikrlashi va tili o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Bu tadqiqot ko'zi o'z odamning til tanlovi yoki nutqi psixolingvistik jihatdan tahlil qilinishi mumkinligini o'rganadi.

"Ko'rolmaydigan barcha nurlar" romani yoshligidan yo'llari birlashgan, ammo bir-biriga bog'lanmagan qiz va yigitning hayotiy hikoyalarni taqdim etadi. Marie-Laure ismli qiz ko'zi o'z bo'lib, o'z dunyosida ham shirin bolalik tajribalari, ham og'ir qiyinchiliklar orqali yashaydi. Roman davomida yozuvchi Marie-Laurening jismoniy holati (ko'rliigi) va tili natijasida yuzaga kelgan kognitiv jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatgan [5].

Roman ko'zi o'z bolaning qanday qiyinchiliklarga duch kelishini, voqelikka qanday moslashishini, hodisalarning ma'nosini qanday anglashini, o'z fikrlarini qanday qurishini va tilni qanday hosil qilishini namoyish etadi.

Marie-Laure dunyoni teginish va otasi tomonidan yasalgan modellarda barmoqlarini harakatlantirish orqali

anglaydi. Uning otasi, janob LeBlanc, qiziga o'zini o'zi ta'minlashga yordam berishga juda qat'iy intiladi. U Brayl yozuvini o'rgatadi va uning bilimni turli viktorinalar va jumboqlar orqali oshiradi. Marie-Laure o'z xayolida xaritalar chizadi, narsalarga rang, hid, shakl va ma'no beradi. Ko'rish qobiliyatining yo'qligi ham tashqi, ham ichki cheklovlarining paydo bo'lishiga va davom etishiga olib keladi. Marie-Laure o'zining ko'zi o'zligiga qaramay, muloqotda o'ziga ishonchli va dadil bo'lib, otasining yo'qligida ham jasorat topadi.

Tadqiqot tanlangan matn va ikkilamchi manbalarga (nashr etilgan kitoblar, jurnallar va tadqiqot maqolalari) asoslangan chuqur kontent tahlillaridan iborat sifatli usulni qo'llaydi. U ko'zi o'z bolalarning kognitiv, psixologik va lingvistik jihatlari bo'yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilib, ularni romandagi tasvirlar bilan bog'laydi. Tadqiqotchi roman voqeliklarini tahlil qilar ekan, shunday yozadi: "Sog'lom ko'rish qobiliyatiga ega bolaning tili dunyoning vizual jihatlarga bog'liq bo'lsa-da, ko'zi o'z bolaning dunyosi haqidagi tili ko'ruvchi odamlarnikidek tartibli va tanish bo'lmasligi mumkin. Ko'rish qobiliyati insonning real dunyodan ko'p narsalarni idrok etishida eng muhim rol o'ynaganligi sababli, ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmagan bola jismoniy va aniq hodisalarni tushunish va tasvirlashda jiddiy cheklovlarga duch keladi. Shunga qaramay, xulq-atvor va neyrologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'zi o'z bolalar oddiy narsalar, ularning rangi, harakatlari va psixologik holati haqida normal tushunchalarga ega bo'ladi".

Urush sharoitida otasiz qolgan ko'zi o'z qiz o'z atrofidagi dunyoni o'zi o'rganishga majbur bo'ladi. Marie-Laurening har bir sintaktik ifodasi uning miya faoliyatini, psixologik holatini va real dunyoni tushunishini ochib beradi. Uning aqliy sog'ligi va jasorati uning dunyoni o'rganish istagi orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolaning jismoniy holati va kognitiv tuzilishi o'rtasida sezilarli o'zaro bog'liqlik mavjud, ya'ni bolaning ko'rliigi uning tili, fikrlari va psixolingvistik xulq-atvoriga ta'sir qiladi.

"Til va Ko'rish Qobiliyatining Buzilishi".

Anna R.Galiano va Serge Portalier tomonidan yozilgan ushbu maqola ko'rish qobiliyatining buzilishi til rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganuvchi mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqadi. Maqola "International Psychology, Practice and Research" jurnalida 2011-yilda nashr etilgan.

Maqola mazmunining asosiy jihatlari:

* Ko'rishning roli: Tadqiqot til rivojlanishida ko'rishning roli haqida falsafiy va psixologik nuqtai nazarlardan boshlanadi.

* Psixologiyaning yondashuvi: Maqolaning maqsadi psixologiya ko'rish qobiliyatining buzilishi va bolalarda til rivojlanishi o'rtasidagi munosabatga aniq javob bera olmaganligini ko'rsatishdir.

* Ko'zi o'z bolalardagi lingvistik xususiyatlar: Maqolada ko'zi o'z bolalarning tilidagi o'ziga xos xususiyatlar ro'yxati tuzilgan. Bu ro'yxatni tuzishda ularning tili ko'zi o'z kattalarning tili bilan solishtirilgan.

* Rivojlanish nuqtai nazari: Maqolada ta'kidlangan asosiy xulosa shundan iboratki, ko'zi o'z bolalardagi o'ziga xos lingvistik xususiyatlar shunchaki "muammolar" emas, balki ko'zi o'z bolalarga xos bo'lgan rivojlanish usuli hisoblanadi.

Maqolada ko'rib chiqilgan asosiy mavzular Kognitiv qobiliyat, Til, Aqliy tasavvurlar, Ko'rish qobiliyatining buzilishi va Ko'rish kabilardir.

Umuman olganda, ushbu maqola ko'rishning yo'qligi tilning o'zlashtirilishi va qo'llanilishiga qanday ta'sir qilishini chuqur o'rganadi, ayniqsa ko'zi o'z bolalarning lingvistik xususiyatlari nuqson emas, balki rivojlanishning o'ziga xos shakli ekanligini ta'kidlaydi.

Rus tilshunosligidagi tadqiqotlar

Ko'zi ojizlarda tilni yoki so'z ma'nolarini o'zlashtirish bo'yicha rus tadqiqotchilarining qarashlari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda aks etgan. Ular asosan quyidagi yo'nalishlarda fikr yuritganlar:

* A.I.Meshcheryakov ko'zi ojiz va kar bolalar bilan ishlagan va ularning tilni o'zlashtirish jarayonini chuqur o'rgangan. U ko'zi ojiz bolalarni tarmoqli (sensor) tizimlar orqali nutqqa o'rgatishning usullarini ishlab chiqqan.

* S.D.Zykova, E.F.Rau, E.I.Ilenkov va boshqa olimlar ham ko'zi ojiz bolalar bilan ishlashda pedagogik, lingvistik va psixologik yondashuvlarni birlashtirganlar.

Tadqiqotlarning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

* Ko'r bola uchun tilni o'rganishda material dunyo bilan sensor aloqa bo'lishi muhim.

* Taktil sezgi (teriga tegish orqali his qilish) orqali til tushunchalarini shakllantirish.

* So'zlarning ma'nosini o'zlashtirish uchun ko'zi ojiz bolalarga konkret predmetlar bilan aloqa kerak.

Ko'zi ojiz insonlarning til o'rganish jarayonida so'z ma'nolarini qabul qilish va o'zlashtirish mexanizmlari

psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganilgan. Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslarda til o'rganish va so'z ma'nolarini tushunish jarayoni boshqa sezgi organlari, xususan, eshitish, teginish va kinestetik idrok orqali amalga oshirilishi aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojiz bolalar vizual tushunchalarni ham eshitish va kontekst asosida o'zlashtiradi, bu esa ularning kognitiv va lingvistik rivojlanishi izchil kechishini ta'minlaydi. Shuningdek, ko'zi ojiz bolalarning til o'rganishidagi o'ziga xos xususiyatlar shunchaki "muammolar" emas, balki ularga xos bo'lgan rivojlanish usuli ekanligi ta'kidlangan.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojiz bolalarda til o'zlashtirish jarayoni o'ziga xos tarzda kechadi. Ular nutqni eshitish va boshqa sezgi a'zolari orqali egallaydi. Til orqali hosil bo'ladigan semantik tasavvurlar ko'rish qobiliyati meyorida bo'lgan bolalarnikidan farq qilsa-da, mazmun jihatidan to'liqdir. Shuningdek, ot-onalar bilan muloqot, ijtimoiy muhit va ta'lim metodlari til rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ko'zi ojiz bolalarning nutq rivojlanishida maxsus psixolingvistik yondashuvlar qo'llanilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Paivio, A. (1971). *Imagery and Verbal Processes*. – New York: Holt, Rinehart & Winston.
2. Gleitman, L.R., & Landau, B. (1985). *Language and Experience: Evidence from the Blind Child*. Harvard University Press.
3. Goldin-Meadow, S., & Landau, B. (1985). *Language Development in the Absence of Vision*. *Cognitive Psychology*, 17. – P. 1-56.
4. Pérez-Pereira, M. (1992). *Pragmatic Functions of Blind and Sighted Children's Language: A Twin Case Study* // *Journal of Child Language*, 19 (2). – P. 393-412.
5. Pérez-Pereira, M., & Conti-Ramsden, G. (1999). *Language Development and Social Interaction in Blind Children*. Psychology Press.
6. Fraiberg, S. (1977). *Insights from the Blind: Comparative Studies of Blind and Sighted Infants*. Basic Books.
7. Senju, A., & Meltzoff, A. (2007). *Joint Attention and Blindness: A Comparative Study*. *Developmental Science*, 10 (3). – P. 278-288.
8. Vigotskiy, L.S. (1934). *Myshlenie i rech' [Thought and Language]*. – Moscow: Gosudarstvennoe izdatel'stvo.
9. Alimova, D. (2010). Ko'zi ojiz o'quvchilarda nutq va semantik rivojlanish muammolari. *O'zbekiston pedagogika jurnali*, 4 (2). – P. 55-62.
10. McConachie, H.R., & Moore, V. (1994). *Early Language Development in Blind and Severely Visually Impaired Children*. *Developmental Medicine & Child Neurology*, 36 (3). – P. 230-240.